

**PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING ZAMONAVIY TA`LIMDA
AHAMIYATI**

Gulomova Komila Maxamatjanovna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
[*g.komila05@gmail.com*](mailto:g.komila05@gmail.com)

Abdumavlyanova Maftuna Yuldashevna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
“Boshlangich ta`lim” yo`nalishi 2-bosqich talabasi
[*khabibullayevamaftuna27@gmail.com*](mailto:khabibullayevamaftuna27@gmail.com)

Anotatsiya. Maqolada pedagogik mahorat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta`lim jarayonidagi o`rni va roli keng yoritilgan. Shuningdek, pedagogik mahoratni shakllantirishda o`qituvchining kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ salohiyati, innovatsion faoliyatga tayyorligi, psixologik-pedagogik bilim darajasi muhim omil sifatida tahlil etiladi. Maqolada pedagogik mahoratning o`quvchilarining ta`limga bo`lgan motivatsiyasini oshirish, individual yondashuvni amalga oshirish, ijodiy fikrlashni shakllantirishga ta`siri xususida fikr yuritiladi. Xulosa qismida esa o`qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga doir samarali usullar va metodik yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so`zlar. Pedagogik mahorat, o`qituvchilik san`ati, kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv, ta`lim sifati, didaktika, shaxsiy fazilatlar.

**PEDAGOGICAL MASTERY AND ITS IMPORTANCE IN MODERN
EDUCATION**

Gulomova Komila Makhamatjanovna
Associate Professor, Department of Social Sciences
Tashkent University of Economics and Technology
[*g.komila05@gmail.com*](mailto:g.komila05@gmail.com)

Abdumavlyanova Maftuna
2nd-year student, Primary Education program
Tashkent University of Economics and Technology
[*khabibullayevamaftuna27@gmail.com*](mailto:khabibullayevamaftuna27@gmail.com)

Abstract. The article provides a detailed analysis of the essence and content of the concept of pedagogical mastery, as well as its role and significance in the modern educational process. Special attention is given to the analysis of such factors as the

teacher's professional competence, communicative abilities, readiness for innovative activities, and the level of psychological and pedagogical knowledge, all of which play a crucial role in the development of pedagogical mastery. The article also examines how pedagogical mastery influences students' motivation to learn, the implementation of an individualized approach, and the development of creative thinking. In the concluding part, effective methods and methodological approaches aimed at enhancing teachers' pedagogical mastery are presented.

Keywords. Pedagogical mastery, teaching art, professional competence, innovative approach, quality of education, didactics, personal qualities.

Ta'lim – har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu boisdan ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori samaradorlikka erishish, ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarning fikrlash, anglash va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu jarayonda eng muhim va hal qiluvchi omillardan biri — bu o'qituvchining kasbiy mahoratidir [1]. Pedagogik mahorat nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning shaxsiy kamoloti va ijtimoiy faolligi shakllanishida ham beqiyos ahamiyatga ega.

Pedagogik mahorat atamasi pedagogikaning eng murakkab va shu bilan birga, eng muhim tushunchalaridan biri bo'lib, u o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ salohiyati, ijodiy yondashuvi va shaxsiy fazilatlarini o'z ichiga oladi. Bu mahorat yillar davomida tajriba, o'z ustida ishslash, zamonaviy metodikalarga ega bo'lish orqali shakllanadi.

Pedagogik mahorat ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Ba'zi olimlar uni o'qituvchilik faoliyatini san'at darajasida amalga oshirish deb bilishadi. Boshqalar esa pedagogik mahoratni kasbiy faoliyatni yuqori darajada, samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyati sifatida ko'rsatadilar. Ammo barcha talqinlar negizida bir fikr yotadi — bu o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyati, ma'naviy fazilatlari, bilim va ko'nikmalarining uyg'unligidir [2].

Zamonaviy yondashuvlarda pedagogik mahorat deganda, o'qituvchining quyidagi yo'naliishlardagi salohiyati nazarda tutiladi: nazariy bilimlarning chuqurligi, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, interaktiv usullarni qo'llay olish, darslarni samarali rejalashtirish va olib borish, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish.

Pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri — bu refleksiv yondashuvdir. O'qituvchi o'z faoliyatini doimiy tahlil qiladi, xatolar ustida ishlaydi, tajriba asosida yangiliklarni joriy qiladi [3]. Refleksiya pedagogik mahoratning shakllanishida ichki o'zgarishlar mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat tushunchasi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Kasbiy kompetensiya — bu nafaqat aniq fan bo'yicha bilim, balki

uni o'rgatish metodikasini bilish, psixologik-pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish, shuningdek, shaxsiy fazilatlarni rivojlantira olish qobiliyatidir.

Zamonaviy pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi: predmet bo'yicha chuqur bilim; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan xabardorlik; kommunikativ ko'nikmalar; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari; ijtimoiy va madaniy kompetensiyalar. Bularning barchasi birgalikda pedagogik mahoratni tashkil etadi.

O'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini o'quvchilarga samarali yetkazish uchun pedagogik texnologiyalardan, interfaol usullardan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillaridan foydalana olishi lozim. Shu bilan birga, o'quvchilar bilan psixologik jihatdan sog'lom muhit yaratish ham o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik madaniyatni talab etadi.

Pedagogik mahorat nafaqat dars sifati, balki o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabati, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasi, ijodiy fikrlashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tajribali va malakali o'qituvchi har bir o'quvchining imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladi, individual yondashuv orqali uning rivojlanish trayektoriyasini belgilaydi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv shakllanadi [4].

Yuqori darajadagi pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z darslarini ijodkorlik asosida tashkil etadi. Ular ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni jalb etadi, noan'anaviy metodlardan foydalanadi, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, bilimlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishiga olib keladi.

Pedagogik mahorat shaxsiy fazilatlar bilan bevosita bog'liq. Mas'uliyat, halollik, sabr-toqat,adolat, empatiya kabi fazilatlar o'qituvchining ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois o'qituvchilar uchun kasbiy mahoratni doimiy ravishda rivojlantirish nafaqat zarurat, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat hamdir.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va muhim omili hisoblanadi. Bu nafaqat o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabati, balki ta'lim sifatiga bo'lgan mas'uliyat darajasini ham belgilab beradi. Pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirish uchun doimiy o'z-o'zini rivojlantirish, tajriba almashish, zamonaviy metodikalarni o'zlashtirish, psixologik-pedagogik salohiyatni oshirish zarur. O'qituvchilik san'ati – bu ijod, fidoyilik va uzuksiz izlanishni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, uning markazida insonparvarlik va mehr-shafqat turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmuhamedov Q.X. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. - 2019

2. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya. - 2021
3. Vaxobova D.M. Zamonaviy ta'linda innovatsion pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Ilm ziyo. - 2020
4. Saidov A.A. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya. Respublika ilmiy-amaliy jurnalı, 2018, №4.
5. OECD Teachers and School Leaders as Valued Professionals: International Summit on the Teaching Profession. OECD. - 2020